

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Ingliz tili amaliy aspektlari" kafedrasi mudiri p.f.f.d (Phd), Muxtorov Muxiddin taqrizi ostida

## **THE STUDY OF THE LEXICOLOGY OF VERBS OF MOTION IN THE UZBEK LANGUAGE**

*Avezova Nigora Safarovna*

*nigoraavezova76@gmail.com*

*senior teacher, PhD*

*Uzbek State World Languages University*

**Annotation:** Somatisms are lexical units that reflect the names of parts of the human body and are studied as nouns with independent meanings. Basically, the question, grammatical indicators characteristic of nouns, i.e., possessive and case suffixes, are accepted and are classified, denoting the concept of an object, such as nouns. They appear as definite nouns. However, the object of our research is not somatisms, but lexemes expressing the action of somatisms - verbs. Somatisms are linguistic units that have their place in the language and form a specific lexical system. Their place in language and speech is clearly visible. Somatisms serve to express the parts of the human body in the language system of all peoples. Specifically, in English and Uzbek, they exist as a holistic system, forming macro-and micro-semantic fields. Indeed, somatisms are units that form a separate lexical-semantic group and have their place in the language system. The units belonging to this lexical-semantic group constitute a semantically independent paradigm. There are many works dedicated to the study of somatisms in the Uzbek language, phraseological units formed through them, and proverbs. Below is a general overview of the content, object and subject of research, and conclusions of these works.

**Keywords:** somatisms, lexical-semantic group, semantic field, lexical unit, non-verbal, means of communication, somatic expression.

## **ИЗУЧЕНИЕ ЛЕКСИКОЛОГИИ ГЛАГОЛОВ ДЕЙСТВИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ**

*Аvezова Нигора Сафаровна*

*nigoraavezova76@gmail.com*

*старший преподаватель, PhD*

*Узбекский государственный университет мировых языков*

**Аннотация:** Соматизмы - это лексическая единица, отражающая названия частей человеческого тела, которые изучаются как существительные, обозначающие самостоятельное значение. В основном, существительные рассматриваются с использованием вопросительных, грамматических показателей, то есть притяжательных и падежных суффиксов, обозначающих понятие предмета, как существительные. Проявляется как конкретные существительные. Но объектом нашего исследования являются не соматизмы, а лексемы-глаголы, выражающие действие соматизмов. Соматизмы - это языковые единицы, имеющие свое место в языке и образующие определенную лексическую систему. Их роль в языке и речи становится очевидной. Соматизмы служат для выражения частей человеческого тела в языковой системе всех народов. В частности, в английском и узбекском языках они существуют как целостная система, образуя макро-и микросемантические поля. Действительно, соматизмы являются

единицами, образующими отдельную лексико-семантическую группу и занимающими свое место в языковой системе. Единицы, относящиеся к этой лексико-семантической группе, составляют семантически самостоятельную парадигму. В узбекском языке существует множество работ, посвященных изучению соматизмов, фразеологизмов и пословиц, образованных с их помощью. Ниже приводится общий обзор содержания, объекта и предмета исследования, выводов этих работ.

**Ключевые слова:** соматизмы, лексико-семантическая группа, семантическое поле, лексическая единица, невербальное, средство общения, соматическое выражение.

## O'ZBEK TILIDA HARAKAT FE'LLARI LEKSIKOLOGIYASINING O'RGANILISHi

Avezova Nigora Safarovna  
nigoraavezova76@gmail.com  
katta o'qituvchi, PhD  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Annotatsiya:** Somatizmlar inson tana a'zolarining nomlarini o'zida aks ettiruvchi leksik birlik bo'lib, ular mustaqil ma'no anglatuvchi otlar sifatida o'rganiladi. Asosan, otlarga xos so'roq, grammatik ko'rsatkichlar, ya'ni egalik va kelishik qo'shimchalarini qabul qilib kelib, otlar kabi predmet tushunchasini anglatib, turlanadi. Aniq otlar sifatida namoyon bo'ladi. Ammo bizning tadqiq obyektimiz somatizmlar emas, balki somatizmlar harakatini ifodalovchi leksemalar – fe'llardir. Somatizmlar tilda o'z o'rniga ega lisoniy birliklar bo'lib, muayyan leksik tizimni tashkil etadi. Ularning til va nutqdagi o'rni yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Somatizmlar barcha xalqlarning til tizimida inson tana a'zolarini ifodalashga xizmat qiladi. Jumladan, ingliz va o'zbek tillarida ham ular yaxlit tizim sifatida mavjud bo'lib, makro va mikro semantik maydonlarni hosil qiladi. Haqiqatan ham, somatizmlar alohida leksik-semantik guruhni tashkil qiluvchi birliklar bo'lib, lisoniy tizimda o'z o'rniga ega. Bu lug'aviy ma'noviy guruhga mansub birliklar semantik jihatdan mustaqil paradigma tashkil qiladi. O'zbek tilida somatizmlar, ular vositasida shakllangan frazeologik birliklar va maqollar tadqiqiga oid ishlar talaygina. Quyida mazkur ishlarning mazmuni, tadqiq obyekti va predmeti, xulosalarining umumiylarini sharhini keltiramiz.

**Kalit so'zlar:** somatizmlar, leksik -semantik guruh, semantik maydon, leksik birlik, noverbal, muloqot vositasi, somatik ibora.

Somatik leksika tarkibiy qismlari sifatida inson tanasining qismlari, hayvonlar tanasining qismlaridan tashkil topgan birliklar tushuniladi. Bu atama biologiyada, tibbiyotda "inson tanasi bilan bog'liq narsa" ma'nosida ishlatilishi mumkin. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida tilshunoslar somatik leksikaga alohida e'tibor berib, madaniyatlararo muloqot muammolarining kerakli yechimlarini topishga, tilning leksik tarkibini o'rganish samaradorligini oshirishga harakat qilmoqdalar (Gadoyeva, 2021). Somatizm atamasi birinchi marta F.O. Vakk tomonidan kiritilgan.

Somatizmlar inson tana a'zolarining nomlarini o'zida aks ettiruvchi leksik birlik bo'lib, ular mustaqil ma'no anglatuvchi otlar sifatida o'rganiladi. Asosan, otlarga xos so'roq, grammatik

**Index:** [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

ko'rsatkichlar, ya'ni egalik va kelishik qo'shimchalarini qabul qilib kelib, otlar kabi predmet tushunchasini anglatib, turlanadi. Aniq otlar sifatida namoyon bo'ladi.

Barcha tillardagi somatik so'zlar umumlashtirilgan holda "somonimik so'zlar", ularni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi "Somonimiya" deb yuritiladi. "Somonimiya" deganda, asosan, qiyoslanayotgan tillardagi somatik so'zlar tushuniladi. Ular inson tana qismlarining joylashuvini anglatadi:

1. Bosh va uning qismlari nomlari.
2. Bo'yin va tomoq qism a'zolari.
3. Osteonemik so'zlar (bunday so'zlar sohasiga inson tanasidagi suyak va bo'g'irlarni ifodalovchi so'zlar kiradi).
4. Yuqori qo'l qismi nomlari.
5. Pastki qo'l qismi nomlari.
6. Ko'krak qismi nomlari.
7. Bel qismi nomlari.
8. Beldan past qism nomlari.
9. Oyoq qism nomlari.

Bularning hammasi barcha xalqlarning til tizimida yaxlit sistema sifatida mavjud. Shu tarzda somatizmlarning makro va mikro maydoni miqyosini tasavvur qilish va anglash mumkin. Somatizmlarni mazkur mikro va makro maydonlari asosida ular ifodalovchi harakatni bildiruvchi leksemalar semantik guruhini o'rganish mumkin. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, inson tana a'zolari harakatini ifodalovchi fe'llar somatizmlardan farqli ravishda o'ziga xos guruhlarga bo'linadi.

Somatik iboralarni tadqiq etishning dolzarbliги haqida U.Rashidova shunday yozadi: "O'zbek tilidagi somatik iboralarning semantik va grammatik tabiatini to'g'ri anglash, ularning miqdorini, xususiyatlarini chuqur o'rganish asosida tuziladigan frazeologik lug'atlarda ularning yangi ma'nolarini keyingi asr va mustaqillik yillarda yaratilgan materiallar asosida ochib berish o'zbek frazeologiyasi, leksikografiyasi hamda frazeografiyasi oldida turgan muhim vazifalar qatoriga kiradi" (Rashidova, 2018).

M.Saidxonov to'g'ri ta'kidlaganidek, "o'zbeklarda ishlatiladigan udumlar va adab shakllari muomala bilan bog'liq bo'lgan milliy o'ziga xos, vazifasiga ko'ra chegaralangan va shu bilan birga, aloqa-aratashuvda faol qatnashuvchi hodisalardir. Ulardagi xatti-harakat nutqiy aloqada doimiy ishlatilishi natijasida belgi vazifasida qo'llanishi va nutqiy jarayonning o'rnini bosishi mumkin. Natijada, ular noverbal vosita sifatida imo-ishoralarga teng keladi, o'z lingvistik nominasiyasiga ega bo'ladi va tilda leksik-semantik guruhn tashkil etadi" (Saidxonov, 2008).

M.Qurbanovning fikriga ko'ra, "Gavda uzvlari ishtirokida hosil qilinuvchi noverbal vositalar muloqotda inson ichki ruhiy kechinmalari va munosabatini ham ifoda etadi. Misol uchun, qo'lni chap ko'kragiga qo'yish mehrni, qo'lini mushtlab ko'kragiga takror urishi o'zlik yoki va'dani, ikki qo'llab qornini ushslash (qovushtirish) ta'zimni ifoda etishi mumkin. Qo'lni ko'ksi (qorni, yuragi)ga qo'yish bilan bog'liq imo-ishora harakati 10 ga yaqin salomlashish, xayrlashish, hurmat, minnatdorlik, kechirim, qasam, ishonch, va'da, tabrik, qo'yingki, barcha iltifotni tasvirlashda va mehrni noverbal muloqot orqali ulash jarayonlarida verbal vositalardagi «chin yurakdan» iborasi o'rnida foydalilanadi. Ushbu ishora harakatlarini qasamyod qabul qilishda, madhiya kuylashda, sinfxonalarda o'quvchilarning javob berishida va diniy amallarni bajarishda ham kuzatish mumkin, ular barcha millatlar uchun universal hisoblanadi" (Kurbanov, 2021). Bunday harakat va holatlarning faqat ingliz tili va madaniyatiga xos bo'lganlari ham uchraydi. Masalan:

**Index:** [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

*V* – ya’ni ikki barmoq, ko’rsatgich va o’rta barmoq orasini ohib ko’rsatish *kelishuv, tinchlik* ma’nosini ifodalaydi.

*OK* – bosh va ko’rsatgich barmog’ini bir-biriga bog‘lab aylana hosil qilishi *ma’qullash* yoki *barcha ishlar joyidaligini bildiradi*.

*Belissimo* – taom mazali ekanligini bosh va ko’rsatkich barmoqlarni birlashtirib lablari oldiga olib borish orqali ko’rsatiladi.

*Luck* – *omad tilashda* ko’rsatkich va o’rta barmog’ini bir-biriga bog‘lab ko’rsatib yetkaziladi.

*Hitchhiking* – bunda bosh barmoq yuqoriga qaratilgan, qolgan barmoqlar buklangan holda ko’rsatishdir. Bu belgini asosan piyodalar katta yo’llarda pulsiz qolganlarida mashinalarga ko’rsatadilar, shunda haydovchilar istasa, yo‘l-yo‘lakay bo‘lsa tekinga olib borib qo‘yadi.

Bular, asosan, qo‘l harakati bilan bog‘liq jestlar, ya’ni xatti-harakatlardir. Undan tashqari yana inglizlarga xos xarakterli jihat bu tabassum, jilmayishdir; bu *suhbatga ochiqlikni bildiradi*.

*Eye contact* – gaplashganda suhbatdoshining ko‘ziga qarab gapirish juda ham muhim, aks holda, gapirgan gapi shubhali bo‘lib ko‘rinadi.

Inglizlarda individuallik kuchli bo‘lib, avvalambor, o‘ziga qulaylik tug‘diradi. Agar talaba ma’ruzaga kech qolsa, kechirim so‘rasa, ularga g‘alati tuyuladi. Kech qolgan talaba darsga bemalol kirib o‘tiradi; xohlagan vaqtida chiqib ketadi; bu ular uchun norma hisoblanadi.

Bundan ko ‘rinadiki, ingliz madaniyatida inson tana a’zolari harakati bilan ifoda etiladigan imo-ishoralar alohida tizimni tashkil etadi.

U.Rashidovaning “O‘zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili (ko‘z, qo‘l va yurak komponentli iboralar misolida)” sarlavhali monografik tadqiqotida o‘zbek tilida faol qo‘llanuvchi ko‘z, qo‘l va yurak komponentli somatik frazemalarning pragmatik, lingvokulturologik, kognitologik, paradigmatic va sintagmatik xususiyatlari ohib berilgan; ko‘z, qo‘l va yurak komponentli somatik frazemalarning milliy-madaniy mohiyati hamda so‘zlashuv, badiiy-publisistik matndagi semantik-pragmatik va funksional-stilistik xususiyatlari asoslangan; inson tana a’zolari bilan bog‘liq somatik frazemalarning o‘z semantik maydonining kengligi, emotsiyal-ekspressiv jihatdan rang-barangligi bilan o‘z qatlqidagi iboralardan jiddiy farqlanishi, nisbiy kommunikativ ustunligi hamda faolligi aniqlangan; ko‘z, qo‘l va yurak komponentli somatik frazemalarning badiiy-publisistik matnlardagi eksplitsit va implitsit ifodalinish usullari aniqlanib, ularning konseptual belgilarni ifodalovchi leksikografik xususiyatlari dalillangan (Rashidova, 2018).

M.Gadoyeva esa somatizmlarning til leksik tizimidagi o‘rnini quydagicha izohlaydi: “Somatizmlar tilda o‘z o‘rniga ega lisoniy birliklar bo‘lib, muayyan leksik tizimni tashkil etadi. Ularning til va nutqdagi o‘rni yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Somatizmlar barcha xalqlarning til tizimida inson tana a’zolarni ifodalashga xizmat qiladi. Jumladan, ingliz va o‘zbek tillarida ham ular yaxlit tizim sifatida mavjud bo‘lib, makro va mikro semantik maydonlarni hosil qiladi” degan o‘rinli xulosaga keladi (Gadoyeva, 2022). Haqiqatan ham, somatizmlar alohida leksik-semantik guruhni tashkil qiluvchi birliklar bo‘lib, lisoniy tizimda o‘z o‘rniga ega. Bu LMG mansub birliklar semantik jihatdan mustaqil paradigma tashkil qiladi.

M.Gadoyevaning ta’kidlashiga ko‘ra, “Barcha xalqlarning tilida tug‘ilish, bola parvarishi, uylanish, oila qurish bilan bog‘liq to‘y, o‘lim hodisasiga aloqador motam marosimi va ularga daxldor turli-tuman urf-odatlarning nomi shakllanishida somatizmlarning alohida o‘rni va ta’siri borligi kuzatiladi. Lekin bu haqda haligacha maxsus tadqiqotlar yaratilmagan. Marosim, urf-odatlar nomining shakllantirilishida somatizmlarning xalq madaniy hayoti, milliy psixologiyasi ta’sirida qo‘llanishi anglashilib turadi. Buni har bir xalqning marosim va urf-odatlari nomida somatizmlarning faol qo‘llangani ham dalillaydi. Masalan, bolalar hayoti bilan bog‘liq “Soch

*Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.*

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

to‘yi”, “Tish to‘yi”, “Oyoq bosdi” yoki “Oyoq chiqardi”, Sunnat to‘yiga oid “Qo‘lini halollash”, “Qulqoq cho‘zma”, nikoh to‘yi bilan bog‘liq “Oyoq bosdi”, “Qo‘l ushlatar”, “Soch siypatar”, “Yuz ochdi”, “Boshini bog‘lamoq” va hokazolar shular jumlasidandir”. Bundan ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek xalq og‘zaki ijodida ham inson tana a‘zolari harakatini ifodalovchi leksemalar faol ishtirok etadi. Demak, insonning maishiy hayotida mazkur leksemalarning qo‘llanish chastotasi yuqori. Bu esa somatizmlar hamda inson tana a‘zolari harakatini ifodalovchi leksemalarning folklor asarlarida ham yorqin namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

M.Rashidovaning xulosasi somatizmlarning pragmatik, lingvokulturologik, kognitologik, paradigmatic va sintagmatik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lsa, M.Gadoyevaning xulosalarida mazkur birliliklarning folklor janrlarining shakllanishidagi ahamiyatini ko‘rish mumkin.

Har bir madaniyatda bolaning tug‘ilishi yaratganning ne’mati sifatida qabul qilinadi. Har bir ota-onan millatidan qat’i nazar, o‘z farzandiga eng yaxshi tilaklar: *baxt, uzoq umr, muhabbat, muvaffaqiyat, barkamollik* va hokazolarni tilaydi. Buni xalq og‘zaki ijodi namunalari ham isbotlaydi. Masalan:

May the nourishment of the earth be yours;  
May the clarity of the light be yours;  
May the fluency of the ocean be yours;  
May the protection of the ancestors be yours,  
And may you be buried in a casket made from the wood of a century old oak I shall plant tomorrow.

Tarjimasi:

Yerning ozuqasi sizniki bo‘lsin;  
Nurning tiniqligi sizniki bo‘lsin;  
Okeanning ravonligi sizniki bo‘lsin;  
Ajdodlar himoyasi sizniki bo‘lsin  
Umringiz bir asrlik eman daraxtidek uzun bo‘lsin.

Yoki:

May strong arms hold you  
Caring hearts tend you  
And may love await you at every step.

Tarjimasi:

Kuchli qo‘llar sizni ushlab tursin,  
G‘amxo‘r yuraklar sizga yordam bersin,  
Va har qadamda sizni sevgi kutib tursin.

Yana:

May you grow into a beautiful/handsome boy/girl  
just like the ones who made you!

Tarjimasi:

Chiroyli o‘g‘il/qiz bo‘lib yetishish nasib etsin  
xuddi sizni dunyoga keltirganlar kabi!

Bunday birliklar o‘zbek tilida ham ko‘plab uchraydi:

Muborak bo‘lsin, katta bo‘lsin, boshi toshdan bo‘lsin, ko‘ziga nur, yuragiga iymon to‘lsin, moy-qadami qutlug‘ bo‘lsin, solih, soliha farzand bo‘lib o‘ssin va h.

Yuqorida keltirilgan parchalardan ko‘rinadiki, turli madaniyat vakillari va xalqlar og‘zaki ijodida inson tana a‘zolari bilan bog‘liq e’tiqodlar mavjud bo‘lib, ular ma’lum bir lingvomadaniy kodlarni tashiydi.

**Index:** [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

X.Akbaraliyevaning “Devonu lug‘atit turk” asaridagi somatizm komponentli maqollarning lingvomadaniy xususiyati” sarlavhali maqolasida somatizm komponentli maqollarni zamonaviy tilshunoslikda tutgan o‘rni va lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilindi. Maqollar hozirgi o‘zbek adabiy tilining rivojlanishida, til me’yorlarning o‘sishida qanday rolni bajarayotganligi asosiy muammo sifatida olingan. Maqlada maqollardagi somatizmlar inson hayoti va uning boshiga tushadigan yaxshi va yomonliklarni tilning imkoniyatlaridan kelib chiqib o‘xshatishlar misolida asosli yoritildi (Akbaraliyeva, 2021). Bu o‘rinda tadqiqotchi Mahmud Koshg‘ariy butun turkiy qabilalar tilidan yozib olgan somatizmlar qatnashgan maqollarni 16 tasinigina tahlil qilganini aytadi va xulosa o‘rnida mazkur maqollardagi somatizmlar inson hayoti, uning boshiga tushadigan yaxshi va yomonliklarni tilning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o‘xshatishlar misolida yoritilganligini ta’kidlaydi. Tadqiqotchi “Turkiy xalqlarning tili va madaniyatining nechog‘lik boyligini maqollarda ming yillik hayoti, urf-odatini aks ettirganligi bilan ma’lum bo‘ldi” degan xulosaga keladi. Mazkur tadqiqotlarda ingliz va o‘zbek tillarida inson tuyg‘ularini ifodalovchi mehr-muhabbat, baxt, qalb, do‘stlik kabi lisoniy birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari, verballahushi chog‘ishtirish yo‘li bilan ochib berilgan; inson tuyg‘ularini ifodalovchi mehr-muhabbat, baxt, yurak, do‘stlik konseptlariga xos umumiy va alohida lingvomadaniylilik tushunchalarining leksik-semantik, mental va struktural xususiyatlari asoslangan; ingliz va o‘zbek tillarida inson tuyg‘ularini ifodalovchi mehr-muhabbat, baxt, yurak va do‘stlik konseptlarning leksik-semantik va etnik mohiyati chog‘ishtirish orqali aniqlangan; ingliz va o‘zbek tillarida *mehr-muhabbat, baxt, yurak va do‘stlik* konseptlarining kognitiv-derivatsion xususiyatlarini aniqlash asosida frazeologik birliklar yordamida inson tuyg‘ularining ifodalanishi dalillangan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akbaraliyeva X. “Devonu lug‘atit turk” asaridagi somatizm komponentli maqollarning lingvomadaniy xususiyati // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 1 / Issue 9. October 2021. – 335 – 340 б.
2. Gadoyeva M.I. Somatik leksikaning xususiyatlari // Scientific progress. – 2021, T.2. № 6. – P. 1749-1754.
3. Gadoyeva M.I. Ingliz va o‘zbek tillarida somatizmlarning semantik-pragmatik tadqiqi (folkloarning kichik janrlari misolida): Filol. fan. d-ri (DSc) ...diss. avtoref. – Buxoro, 2022. – 60 b. – 15 b.
4. Kurbanov M.A. O‘zbek, usmonli turk, ingliz va rus tillarida noverbal muloqotni ifodalovchi vositalar tadqiqi: Filol. fan. fals. d-ri (PhD) diss. avtoref. – Andijon, 2021. – 56 b. – B. 21.
5. Rashidova U.M. O‘zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili (ko‘z, qo‘l va yurak komponentli iboralar misolida): Filol. fan. b-cha fals. d-ri (PhD) ...diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 50 b.
6. Saidxonov M. Aloqa-ralashuv va imo-ishoralar. – Toshkent: Fan, 2008. – 86 b. – 29-b.
- 7.O‘rayeva D.S., Gadoyeva M.I. Ingliz va o‘zbek madaniyati olqishlarida somatizm semantikasi // “Science and Education” Scientific Journal / November 2021 / Volume 2, Issue 11. – 893 – 9006.

**Avezova Nigora Safarovnaning  
“O‘zbek tilida harakat fe’llari leksikologiyasining o‘rganilishi” deb nomlangan  
maqolasiga TAQRIZ.**

*Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.*

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Somatizmlar barcha xalqlarning til tizimida inson tana a'zolarini ifodalashga xizmat qiladi. Jumladan, ingliz va o'zbek tillarida ham ular yaxlit tizim sifatida mavjud bo'lib, makro va mikro semantik maydonlarni hosil qiladi. Haqiqatan ham, somatizmlar alohida leksik-semantik guruhni tashkil qiluvchi birliklar bo'lib, lisoniy tizimda o'z o'rniga ega. O'zbek tilida somatizmlar, ular vositasida shakllangan frazeologik birliklar va maqollar tadqiqiga oid ishlari talaygina. Ushbu maqolada o'zbek leksikologlarining tadqiqotlari kuzatilib umumiy sharhlari keltirilgan.

N.S. Avezovaning ushbu maqolasida o'zbek tilidagi somatik iboralarning semantik va grammatick tabiatini to'g'ri anglash ularning xususiyatlarini chuqr o'rganish masalalari yoritilgan. Maqolada maqollardagi somatizmlar inson hayoti va uning boshiga tushadigan yaxshi va yomonliklarni tilning imkoniyatlaridan kelib chiqib o'xshatishlar misolida asosli yoritilgan. Bunday tadqiqotlar somatizmlar asosida tuziladigan frazeologik lug'atlar va ularning yangi ma'nolarini kengaytirishga hissa qo'shishi ta'kidlangan. Maqola dolzarb va barcha talablar darajasida yozilgan deb hisoblayman.

**Taqrizchi:**

**p.f.f.d (Phd), M.M. Muxtorov**